

# Ommaviy axborot vositalari vakillarini akkreditatsiya qilish

<https://special.uzkmyosanoat.uz/oz/company/ommaviy-ahborot-vositalari-vakillarini-akkreditaciya-qilish>

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 23-noyabrdagi 243-son «O'zbekiston Respublikasi ommaviy axborot vositalari vakillarini davlat hokimiysi organlari huzurida akkreditatsiya qilish tartibini takomillashtirish to'g'risida» Qarori hamda kimyo sanoati faoliyatini o'z vaqtida va obyektiv yoritish maqsadida jamiyatda O'zbekiston Respublika ommaviy axborot vositalari vakillarini akkreditatsiyadan o'tkazish tashkil qilingan. Akkreditatsiya jarayonida jamiyat, Vazirlar Mahkamasining mazkur Qarori bilan tasdiqlangan, «O'zbekiston Respublikasi ommaviy axborot vositalari vakillarini davlat hokimiysi organlari huzurida akkreditatsiya qilish tartibi to'g'risida nizom» asosida ish yuritadi.

Jamiyatda ommaviy axborot vositasi muxbirini akkreditatsiya qilish uchun tahririyat o'zining rasmiy blankasida bosh muharririning imzosi qo'yilgan, muhr bilan tasdiqlangan buyurtmanoma taqdim etadi.

Tahririyatning buyurtmanomasida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- ommaviy axborot vositasining nomi va turi;
- ixtisoslashuvi;
- tarqalish hududi;
- elektron pochta manzili;
- tahririyatning telefonlari va fakslari raqamlari;
- akkreditatsiyaga taqdim etilgan muxbirning familiyasi, ismi va otasining ismi;
- kasb vazifalarini bajarish uchun ushbu muxbir o'zi bilan birga olib yurishi zarur bo'lgan apparatlar.

Buyurtmanomaga batafsil ma'lumotlar (muxbirning xizmat mavqeい, pasportiga oid ma'lumotlar, diplomi nusxasi, elektron pochta manzili, telefon va faks raqami) mavjud bo'lgan ma'lumotnomha hamda belgilangan shakldagi to'rtta fotosurat ilova qilinadi.